

## MINTAQA IQTISODIY SALOHIYATINI OSHIRISHNING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI

**Turayev Og‘abek**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

E-mail: [ogabek.turayev@urdu.uz](mailto:ogabek.turayev@urdu.uz)

### **Annotatsiya**

Maqolada mintaqaning iqtisodiy salohiyati tushunchasiga oid olimlarning zamonaviy qarashlari tizimlashtirilgan. Shuningdek, olingan natijalarga muvofiq mintaqa iqtisodiy salohiyatini oshirishga qaratilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** mintaqa iqtisodiy salohiyati, hududiy rivojlanish, iqtisodiy resurslar, investitsiya salohiyati, ishlab chiqarish infratuzilmasi, mehnat resurslari.

### **Аннотация**

В статье систематизированы современные взгляды ученых на понятие экономического потенциала региона. Также Полученным результатам разработаны научное предложение и практические рекомендации, направленные на повышение экономического потенциала региона.

**Ключевые слова:** экономический потенциал региона, региональное развитие, экономические ресурсы, инвестиционный потенциал, производственная инфраструктура, трудовые ресурсы.

### **Abstract**

The article systematizes contemporary scholarly views on the concept of a region’s economic potential. Based on the obtained results, a scientific proposal and practical recommendations were developed aimed at increasing the region’s economic potential.

**Keywords:** regional economic potential, regional development, economic resources, investment potential, production infrastructure, labor resources.

### **KIRISH**

Mintaqalarning samarali iqtisodiy rivojlanishi masalasi jahon globallashuvi sharoitida alohida dolzarblik kasb etmoqda. Mintaqaviy iqtisodiy salohiyat har qanday hududni rivojlantirishning asosiy omili hisoblanadi, chunki u nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy o‘shirish imkoniyatlarini, balki mintaqaning raqobatbardoshligini ham belgilaydi. Iqtisodiyotdagi globallashuv jarayonlari sharoitida doimiy o‘zgarishlarning mavjudligi mintaqaviy salohiyatni shakllantirish tamoyillarini asoslash va rivojlanishning istiqbolli yo‘nalishlarini belgilashni talab etadi. Bu esa mintaqaviy darajada ham, butun davlat boshqaruv tizimini takomillashtirish nuqtai nazaridan ham eng muhim vazifalardan biriga aylanmoqda. Hududiy iqtisodiy salohiyatdan yuqori darajada samarali foydalanish aholi turmush darajasining yuksalishiga va iqtisodiy tizimning mustahkamlanishiga xizmat qilmoqda.

## ADABIYOTLAR SHARHI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risidagi PF-60-sonli farmoni doirasida mamlakatimiz taraqqiyotini belgilovchi 100 ta maqsad ishlab chiqilgan. Ushbu strategiyaning 34-maqsadida “Hududlarning muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma tizimini hamda xizmat ko‘rsatish va servis sohalarini rivojlantirish” [1] vazifasi qo‘yilgan. Mintaqaning iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish har bir fuqaroning hayot sifatini oshirishga ijobiy ta‘sir etadi. Shu bois mintaqaning o‘ziga xos xususiyatlari, ehtiyojlari va imkoniyatlarini hisobga olgan holda uni rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan strategiya hamda chora-tadbirlarni ishlab chiqish zarur.

Mintaqaning iqtisodiy salohiyati asosi mavjud resurslar va ulardan foydalanish samaradorligi bilan belgilanadi. Bu borada bir qator olimlarning ilmiy izlanishlari e‘tiborga loyiq. Jumladan, D. V. Trostyanskiy [2] fikricha, mavjud resurslardan samarali foydalangan holda hududlarda sanoatni rivojlantirish davlatning sanoat siyosati bilan muvofiq tarzda olib borilishi kerak. Uning ta‘kidlashicha, sanoat ishlab chiqarishini tashkil etishda innovatsiyalar sohasidagi so‘nggi yutuqlardan foydalanish orqali resurslardan foydalanishni optimallashtirish zarur. Shu nuqtai nazardan, tarmoqlar salohiyatini aniqlash va uni rivojlantirish mamlakat hamda uning hududlarida sanoat siyosatini samarali amalga oshirishning asosi bo‘lib xizmat qiladi.

“Innovatsion salohiyatni shakllantirishning resurs komponenti innovatsiyalarni amalga oshirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi va moddiy, moliyaviy, axborot, ilmiy hamda inson resurslarini o‘z ichiga oladi. Ular orasida faqat axborot resurslari tugamaydi. Ma‘lumki, moddiy resurslar, bir tomondan, tegishli tarmoqlarda shakllansa, ikkinchi tomondan, ular yangi ishlab chiqarish vositalarini yaratish orqali ushbu tarmoqlarda potensial imkoniyatlar yaratadi” [3].

Mintaqaviy darajadagi strategik ustuvorliklarga quyidagi fikrlarni kiritish mumkin: birinchidan, hududiy rivojlanish vektori hududning ichki salohiyatini faollashtirish orqali uning o‘zini o‘zi rivojlantirishini ta‘minlashga yo‘naltirilishi lozim; ikkinchidan, mintaqaning rivojlanishi davlatning mintaqaviy siyosatining strategik maqsadi sifatida nafaqat iqtisodiy o‘sish, balki ko‘p jihatdan davlat byudjeti siyosati bilan ham belgilanadi [4].

N. V. Sokolova “mintaqaning tabiiy resurs salohiyati” deganda, hududning tabiiy resurslarining fan va texnika rivojlanishining ma‘lum darajasida ijtimoiy ishlab chiqarish hamda aholining zamonaviy va istiqbolli ehtiyojlarini ta‘minlash qobiliyatini tushunadi. A. A. Mins ta‘rifiga ko‘ra, tabiiy resurslar deganda ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojlanishining ma‘lum darajasida jamiyat ehtiyojlarini qondirish uchun foydalanish mumkin bo‘lgan tabiat jismlari va kuchlari tushuniladi. Y. V. Lapin “iqtisodiy salohiyat”, “iqtisodiy mustahkamlik” va “xalq xo‘jaligi salohiyati” atamalarining o‘zaro yaqinligini qayd etadi [5].

I. N. Karapeychik “iqtisodiy” va “ishlab chiqarish” salohiyatlarini tegishli ravishda iqtisodiyot va ishlab chiqarish bilan bog‘liq tushunchalar sifatida ajratadi. U

iqtisod (iqtisodiy faoliyat) tushunchasi ishlab chiqarishga nisbatan umumiyroq ekanini ta’kidlaydi [6].

Tabiiy sharoitlar jamiyat hayoti va faoliyati uchun zarur bo‘lgan, biroq odamlarning ishlab chiqarish va noishlab chiqarish faoliyatida bevosita ishtirok etmaydigan tabiiy jismlari hamda kuchlaridir [7]. N. F. Reymers tabiiy resurs salohiyatini tabiiy tizimlarning insoniyatni o‘ziga zarar yetkazmasdan zarur mahsulotlar bilan ta’minlash yoki ma’lum bir tarixiy tipdagi iqtisodiyot doirasida foydali ishlarni bajarish qobiliyati sifatida belgilaydi [8].

Mintaqaning iqtisodiy salohiyati bevosita texnologiyalar rivojlanish darajasi va moddiy resurslardan foydalanish samaradorligiga bog‘liqligini N. T. Avramchikova o‘z tadqiqotlarida alohida ta’kidlab o‘tgan. Unga ko‘ra, hudud salohiyatini to‘g‘ri boshqarish iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta’minlovchi asosiy omil hisoblanadi [9].

N. I. Rustamov va M. Sh. To‘xtayevalar hudud salohiyatini resurslardan foydalanishning nazariy asoslari orqali yoritib, ulardan foydalanish samaradorligini oshirish omillarini baholaganlar [10]. Mintaqa salohiyatidan foydalanish samaradorligi tushunchasini shakllantirish uchun “samaradorlik” mohiyatiga oid ilmiy yondashuvlarni tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Klassik ta’rifga ko‘ra, “samaradorlik” — “olingan natijaning uni ta’minlagan xarajatlarga nisbati”dir [11]. D. S. Sink samaradorlikni tizimli boshqaruvning kompleks elementi sifatida — amaldorlik, tejamkorlik, sifat, foydalilik, mehnat unumdorligi, mehnat hayoti sifati va innovatsiyalar bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar majmui sifatida talqin etadi [12].

Shundan kelib chiqib, hudud salohiyatidan foydalanish samaradorligini faqat “natija–xarajat” nisbati bilan cheklash yetarli emas. U ko‘p omilli ta’sirlar orqali shakllanuvchi tizimli kategoriya bo‘lib, mintaqaning murakkab iqtisodiy tizim sifatidagi holatini baholash uchun keng ko‘lamli tadqiqotni talab etadi. Demak, mintaqaning iqtisodiy imkoniyatlarini baholashda mavjud resurslar va ulardan foydalanish darajasi, zaxiralar, ishlab chiqarish kuchlarining joylashuvi, innovatsion faoliyat rivojlanish darajasi, aholi soni va salohiyatiga alohida e’tibor berish zarur.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda “tabiiy resurs salohiyati” toifasini aniqlash, uning tuzilishi va baholash usullari bo‘yicha umumiy ilmiy kelishuv — konsensus mavjud emas. Olimlar ushbu konsepsiyaning chegaralarini turlicha belgilaydilar va uni turli mazmun bilan boyitadilar. Tabiiy resurs salohiyati global, milliy, mintaqaviy va mahalliy darajalarda o‘rganilishi mumkin. Ayniqsa, mintaqaviy darajada tabiiy resurs salohiyatini tahlil qilish eng katta e’tiborni talab qiladi.

Mintaqaning tabiiy resurs salohiyatini barqaror takror ishlab chiqarish qobiliyatini saqlagan holda, ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish munosabatlari rivojlanishining ma’lum bosqichida iste’mol qiymatini yaratishning maksimal hajmini ta’minlaydigan tabiiy resurslar va tabiiy sharoitlar majmui sifatida talqin etish maqsadga muvofiqdir. Mintaqa iqtisodiy salohiyati ko‘p yo‘nalishlarni qamrab oladi. Bu jihatdan, soha va tarmoqlar tuzilishi, ularning tarkibi mintaqa salohiyatining umumiy ko‘rinishini aks ettiradi. Shu bilan birga, mintaqa iqtisodiy salohiyati ishlab

chiqarish, bozor, tabiiy resurslar, ishlab chiqarish omillari va ijtimoiy sohalarni o‘z ichiga oladi.

Mintaqaning tabiiy resurs salohiyatidan oqilona foydalanish tizimlilik, murakkablik, optimallik, sinergiya va o‘zini o‘zi yangilash tamoyillariga asoslanadi. Tizimlilik prinsipi tabiiy resurs salohiyatining tarkibiy elementlari o‘rtasida o‘zaro aloqalar o‘rnatish orqali ularning faoliyatining yaxlitligini ta‘minlashni nazarda tutadi (1-jadval).

**1-jadval.**

**Mintaqa salohiyatining iqtisodiy mohiyatini anglash va aniqlash bo‘yicha ilmiy yondashuvlar [13]**

Mualliflar	Yondashuvning mohiyati
Kovalska S. [14]	Resurs yondashuv asosida “salohiyat” tushunchasini “resurslar” bilan tenglashtiradi. Iqtisodiy salohiyat va hudud salohiyati mavjud resurslar majmuasi sifatida qaraladi. Salohiyat hudud faoliyati yoki rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan resurslar yig‘indisi sifatida baholanadi. Bu yondashuv iqtisodiy o‘sish muammolarini tadqiq etishning nazariy asosini tashkil etadi.
O. S. Fedonin, I. M. Ryepina, O. I. Oleksyuk [15]	Faktorli yondashuv bo‘yicha salohiyat moddiy va mehnat omillari tizimi sifatida ko‘riladi. U ishlab chiqarish maqsadlariga erishishni ta‘minlaydi. Olimlar iqtisodiyot samaradorligini faqat resurslardan foydalanish darajasi bilan emas, balki ishlab chiqarish salohiyatining imkoniyatlari bilan bog‘lash lozimligini ta‘kidlashadi.
D. V. Vorogushina [16]	Natijaviy yondashuv bo‘yicha iqtisodiy salohiyat xo‘jalik subyektlari o‘rtasidagi iqtisodiy va ishlab chiqarish munosabatlari natijasi sifatida talqin etiladi. U mavjud resurslardan samarali foydalanish orqali moddiy ne‘matlar va xizmatlarni yaratish qobiliyatini ifodalaydi. Salohiyat tizimning tuzilishi va funksional birligini aks ettiradi.
Z. V. Gerasimchuk [17]	Funksional yondashuv bo‘yicha iqtisodiy salohiyat uning tarkibiy qismlarining belgilangan vazifalarni bajarish qobiliyati sifatida ko‘riladi.
S. A. Nazarenko [18]	Maqsadli yondashuv bo‘yicha iqtisodiy salohiyat milliy xo‘jalik tarmoqlarining umumiy qobiliyati sifatida baholanadi. U xo‘jalik subyektlarining mavjud resurslar miqdori, sifati va xilma-xilligi sharoitida uzoq muddatli faoliyat hamda strategik maqsadlarga erishish qobiliyatini bildiradi.
Gorban V. B. [19]	Tizimli yondashuv bo‘yicha salohiyat ko‘p elementli, murakkab iyerarxik tuzilishga ega tizim sifatida talqin qilinadi va makrotizim komponentlarining o‘zaro hamkorlik qobiliyatini ifodalaydi.
Kalashnikova V. O. [20]	Integral yondashuv bo‘yicha iqtisodiy salohiyat iqtisodiyot holatining umumiy integral tavsifi sifatida qaraladi. Mehnat resurslari salohiyati esa aholining moddiy va intellektual resurslardan foydalangan holda mehnat faoliyatini amalga oshirish qobiliyati sifatida belgilanadi.
Babkova Ye. G. [21]	Ijtimoiy yo‘naltirilgan yondashuv bo‘yicha iqtisodiy salohiyat xo‘jalik faoliyati subyektlari o‘rtasidagi munosabatlar majmuasi hamda ushbu munosabatlarning ijtimoiy xususiyatlari sifatida ko‘riladi.
Berejna I. Yu. [22]	Jarayonli yondashuv bo‘yicha makroiqtisodiy tizim salohiyati uning boylikni uzluksiz ishlab chiqarish, iste‘mol qilish va transformatsiya qilish qobiliyatini anglatadi. Iqtisodiy salohiyat darajasi tizimning resurslarni transformatsiya qilish imkoniyatlari bilan belgilanadi.

Italiyalik iqtisodchi V. Pareto [23] samaradorlik konsepsiyasining asoschilaridan biri sifatida iqtisodiy samaradorlikni ijtimoiy farovonlik, resurslar va texnologiyalar optimal taqsimoti bilan bog‘laydi. Hozirgi ilmiy adabiyotlarda samaradorlik va

optimallik kategoriyalari o‘zaro bog‘liq tushunchalar sifatida tahlil qilinadi; optimallik esa mavjud cheklovlar sharoitidagi shartli eng yuqori samaradorlik holati sifatida qaraladi. P. Druker [24] ta’kidlaganidek, samaradorlik baholash maqsadlariga qarab o‘zgarishi mumkin, chunki har qanday subyektiv afzallik jarayon yoki hodisa haqidagi xulosani o‘zgartiradi. Shu sababli samaradorlikni subyektiv, shaxsiy baholash mezonlari sifatida ham ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Mintaqa iqtisodiy salohiyatini va undan samarali foydalanish darajasini baholash masalalarini hal etish uchun mos uslubiy yondashuvlarni ishlab chiqish zarur. Bunday yondashuvlar mintaqa iqtisodiy tizimining imkoniyatlarini aniqlash, yashirin resurslarni fosh etish va ulardan samarali foydalanish yo‘llarini belgilash imkonini beradi. Shu asosda zamonaviy tadqiqotlar natijalarini resurs yondashuvi nuqtai nazaridan umumlashtirib, mintaqa salohiyatini mavjud resurslarga tayanib faoliyat yuritiladigan mintaqaviy iqtisodiy tizim qobiliyati sifatida talqin etish to‘g‘ri bo‘ladi. Shuningdek, mintaqa salohiyatini moddiy, ilmiy, mehnat, kadrlar, energetik, tabiiy, moliyaviy, innovatsion va investitsion imkoniyatlar majmuasi sifatida baholash lozim.

Turli yondashuvlarni umumlashtirish natijasida mintaqa salohiyati mintaqaning mavjud resurslar tizimidan foydalangan holda belgilangan maqsadlarga erishish uchun murakkab iqtisodiy tizim sifatida faoliyat yuritish qobiliyatini ifodalovchi tushuncha sifatida shakllanadi.

## **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Mintaqa iqtisodiy salohiyatini oshirish masalasi bugungi kunda iqtisodiy taraqqiyotning strategik ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Tadqiqot davomida o‘tkazilgan ilmiy tahlillar shuni ko‘rsatdiki, mintaqa iqtisodiy salohiyatining mohiyati faqat mavjud resurslar miqdori bilan emas, balki ularni oqilona boshqarish, innovatsion yondashuvlarni joriy etish va hududiy imkoniyatlarni tizimli rivojlantirish bilan belgilanadi.

Birinchi, iqtisodiy salohiyat — bu mintaqaning mavjud resurslar majmui emas, balki ushbu resurslardan samarali foydalanish orqali belgilangan strategik maqsadlarga erishish qobiliyatidir. Shuning uchun mintaqaning ishlab chiqarish, investitsiya, mehnat va innovatsion salohiyatlari o‘zaro integratsiyalashgan holda baholanishi zarur. Bu yondashuv hududiy rivojlanish strategiyasining ilmiy asoslarini mustahkamlaydi.

Ikkinchi, tahlillar shuni tasdiqlaydiki, mintaqaning tabiiy va iqtisodiy resurslarini baholashda tizimlilik, komplekslik va optimallik tamoyillariga amal qilish samaradorlikni oshiradi. Ayniqsa, tabiiy resurs salohiyatini saqlagan holda undan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish ekologik barqarorlik va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlaydi.

Uchinchi, iqtisodiy salohiyatning shakllanishida inson kapitali va innovatsion salohiyat hal qiluvchi o‘rin tutadi. Mehnat resurslarining malakasi, ta’lim sifati va ilmiy-texnik yangiliklarni amaliyotga tatbiq etish darajasi mintaqaning raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omillardir. Shu bois, hududlarda kasbiy tayyorgarlik tizimini zamonaviylashtirish, ilmiy tadqiqotlar natijalarini iqtisodiyotga integratsiya qilish va startap tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash muhim ahamiyatga ega.

To‘rtinchidan, mintaqa iqtisodiy salohiyatini oshirishda davlat siyosatining izchilligi va hududiy boshqaruv tizimining samaradorligi muhim o‘rin tutadi. Mintaqalarda resurslardan foydalanish samaradorligini baholash uchun yagona uslubiy mezonlarni ishlab chiqish, investitsiya muhitini yaxshilash va hududiy iqtisodiyotlarni diversifikatsiya qilish zarur.

Shuningdek, tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, samaradorlikni faqat “natija–xarajat” nisbati orqali baholash yetarli emas. Iqtisodiy salohiyat murakkab tizim bo‘lib, u ijtimoiy, ekologik va texnologik omillarni o‘zida mujassam etadi. Shu sababli, mintaqa iqtisodiy salohiyatini baholashda kompleks yondashuv asosida ko‘rsatkichlar tizimini shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

Tahlillardan kelib chiqib quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Mintaqaviy resurslardan foydalanish samaradorligini baholash tizimini yaratish. Har bir mintaqa uchun resurs salohiyatining to‘liq inventarizatsiyasi va monitoringini yuritish zarur.

2. Investitsiya va innovatsion faoliyatni rag‘batlantirish. Mintaqalarda investorlar uchun soliq imtiyozlari va texnoparklar infratuzilmasini kengaytirish iqtisodiy salohiyatni faollashtiradi.

3. Inson kapitalini rivojlantirish. Mehnat bozorini tahlil qiluvchi regional markazlar tashkil etish, kadrlar tayyorlash tizimini mintaqaning real iqtisodiy ehtiyojlariga moslashtirish lozim.

4. Hududlararo iqtisodiy integratsiyani kuchaytirish. Resurslar, ishlab chiqarish quvvatlari va infratuzilma imkoniyatlarini o‘zaro uyg‘unlashtirish orqali mintaqalararo iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish mumkin.

5. Ekologik barqarorlikni ta‘minlash. Tabiiy resurslardan foydalanishda ekologik cheklov va me‘yorlarni qat’iy nazorat qilish, yashil iqtisodiyot tamoyillarini keng joriy etish zarur.

Xulosa qilib aytganda, mintaqaning iqtisodiy salohiyatini oshirish murakkab, ammo boshqariladigan jarayon bo‘lib, u resurslardan oqilona foydalanish, inson kapitaliga sarmoya kiritish va innovatsion faoliyatni rag‘batlantirish orqali amalga oshiriladi. Ilmiy asoslangan strategik yondashuvlar va amaliy mexanizmlar uyg‘unligi mintaqalarning barqaror iqtisodiy o‘shishini ta‘minlashga xizmat qiladi.

### **FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvar PF-60-son 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risidagi Farmoni <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>

1. Тростянский Д.В., Айдинова М.А. Методология и императивы эффективного использования ресурсного потенциала промышленности на региональном уровне. Т.: CEDR, 2017. – 17 стр.

2. Pohrishchuk B.V., Shcherbych V.V. Innovative potential of regional development in the concept of circular economy. Naukovyy visnyk Uzhhorods’koho natsional’noho universytetu. Seriya “Ekonomichni nauky”, vol. 2 (60), 2022, pp. 78–84.

3. Kish G.V. Chynnyky rehional'noho rozvytku ta yikh stratehichne upravlinnia. Derzhava ta rehiony. Seriya: Ekonomika ta pidpriumnytstvo, 2022, № 1 (124), s. 112–115.
4. Лапин Е.В. Экономический потенциал предприятия. Сумы: Университетская книга, 2002. – 310 с.
5. Карапейчик И.Н. О сущности и соотношении понятий экономического и производственного потенциалов. Бизнес Информ, 2012, №3, ч.1, с. 8–12.
6. Минц А.А. Экономическая оценка естественных ресурсов. М.: Мысль, 1992. – 302 с.
7. Реймерс Н.Ф. Природопользование: словарь-справочник. М.: Мысль, 2002. – 639 с.
8. Аврамчикова Н.Т. Ресурсный потенциал региона: структура и эффективность использования. Менеджмент, 2022, т.5, №4, с. 54–63.
9. Rustamov N.I., To'xtayeva M.Sh. Sanoat korxonalarida hududiy resurs salohiyatidan samarali foydalanish yo'llari. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali, №6, noyabr–dekabr 2020, b. 93–99.
10. Ekonomichna entsyklopediia: U trokh tomakh. T.1. / Red. kol. V. Mochernyy (vidp. red.) ta in. – K.: Vyd. tsentr "Akademiia", 2000. – 864 s.
11. Синк Д.С. Управление производительностью: планирование, измерение и оценка, контроль и повышение. Пер. с англ.; под общ. ред. В.И. Данилова-Данильяна. М.: Прогресс, 1989. – 528 с.
12. Ковалска Л.С. Методичний підхід до отсинювання регіонального потенціалу. Держава та регіон. Серія: Экономика та підприємство. Запорізька: Класичний приватний університет, 2012, №4, с. 38–43.
13. Федонин О.С., Репина И.М., Олексюк О.И. Потенциал підприємства: формування та отсинка. Навч. посібник. К.: КНЕУ, 2004. – 316 с.
14. Ворогушина Д.В. Оценка величины и уровня использования экономического потенциала региональной экономической системы. Вестник ВГУ. Серия: Системный анализ и информационные технологии, 2009, №2, с. 81–89.
15. Герасимчук З.В., Гоманюк О.К. Фактор впливу на розвиток регіональних ринків банківських послуг. Фінансовий простір, 2015, №1 (17), с. 92–101. Назаренко С.А., Проскура В.Ф. Формування прохорамно-тсильового підходу до розвитку кластера. Проблемы и перспектив розвитку банківської системи України, 2012, вип. 34, с. 66–75.
16. Горбан В.Б. Побудова оптимальної структури економічного потенціалу підприємства. Наука й економіка, 2008, №1 (9), с. 107–114.
17. Калашникова В.О. Прометей: регіональний збірник наукових праць з економіки. Донецк: Юго-Восток, 2013, вип. 2 (41), с. 155–158.
18. Бабкова Е.Г. Отсинка соціально-економічного потенціалу та кластеризація регіонів України. Вісник Дніпропетровського університету. Серія: Экономика, 2014, вип. 8 (2), с. 3–11.

19. Березхна И.Ю. Теоретико-экономични пидкходй до обгрунтування змісту інвеститсиінохо потенціалу. Держава та реґіонй. Церийа: Экономика та пидприемнйтво, 2010, №6, с. 253–258.

20. Парето В. Компендиум по общей социологии. Пер. с итал. А.А. Зотова. М.: ГУ ВШЭ, 2007. – 511 с.

21. Друкер П. Эффективное управление: экономические задачи и оптимальные решения. Пер. с англ. М.: ФАИР-Пресс, 1998. – 388 с.



# Marketing

*ilmiy, amaliy va ommabop jurnali*

**Muharrir:**

**Ingliz tili muharriri:**

**Rus tili muharriri:**

**Musahhah:**

**Sahifalovchi va dizaynerlar:**

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

**2025-yil, oktabr, 10-son**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

[info@marketingjournal.uz](mailto:info@marketingjournal.uz)

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti:

<https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**